

## NAVOIY "XAMSA" SIDA KOMIL INSON SHAXSI MASALASI

**Yo'ldosheva Maftuna Dilmurodjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Qanoat, saxovat va himmat bilan inson o'zining ilohiy tanqidni va ulug'ligini anglasa, eng yomon dushman nafsi tanqid ham angraydi. Navoiy ushbu dostondaaynan komillikka yetishishning bir yo'li futuvvat haqida Farhod obrazi orqali ko'rsatib beradi.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, arbob, shinavanda, naqqoshlik, yuksalish, tosh yo'nish

Alisher Navoiy ( 1441-yil 9-fevral 1501-yil 3-yanvar ) — o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi. G'arbda Chig'atoy adabiyotining buyuk vakili. Tarixchi Ali Yazdiy nazariga tushgan, shoir Lutfiy yosh shoir iste'dodiga yuqori baho bergen, Kamol Turbatiy e'tirofini qozongan. Sayyid Hasan Ardashev, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta'lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan.

Navoiy yoshligidan Xurosonning (Transoksanija) bo'lajak hukmdori Husayn Boyqaro bilan (1469-1506) do'st bo'lgan. 10-12 yoshidan she'rlar yozishni boshlagan. Navoiyning zamondoshi bo'lmish tarixchi Xondamir (1473(76) -1534) qoldirgan ma'lumotlarga ko'ra, mashhur o'zbek shoiri Lutfiy (1369-1465) qarigan chog'larida bolakay Navoiy bilan ko'rishadi va uning she'riy iqtidorini yuqori baholaydi. Hayoti davomida Navoiy musulmon Sharqining turli mamlakatlarda bo'ladi, o'z davrining taniqli shaxslari bilan ko'rishadi. O'zining she'riy mahoratini oshiradi. 1464-1465-yillar Navoiy ijodining shinavandalari uning ilk she'riy to'plamini (devonlari) tayyorlashadi. Bundan ko'rinish turibdiki, o'sha davrlardayoq Navoiy mashhur shoir bo'lib ulgurgan. 1469- yilgacha temuriylar o'rtasidagi o'zaro ichki nizolar tufayli Navoiy o'zining ona shahri Hirotdan uzoqda yashashga majbur bo'lgan.

1487-yil Astrobod shahriga hukmdor sifatida yuboriladi. Bu yerda u ikki yil xizmat qiladi. Mazkur muddat nihoyasiga yetgachgina, X. Boyqaro unga Hirota qaytib, hokimiyatda mansabga ega bo'lishiga ruhsat beradi. Lekin Navoiy bu taklifni rad etadi. Rad javobiga qaramay, Boyqaro sultonning yaqin kishisi lavozimini ("mukarrabi xazrati sultani") taklif etadi. Bunday lavozimda Navoiy barcha davlat ishlari bilan bog'liq ishlarda qaror qabul qilish huquqiga ega edi. Shu vaqtadan Navoiy hayotining yangi bosqichi boshlanadi va u ko'proq ijod bilan shug'ullanadi. U yaratgan asarlarining katta qismi aynan shu davrga tegishli. Navoiy temuriylarning so'nggi hukmronlik yillarida (1370-1506) yashab ijod qilgan. Shuning uchun uning asarlarida jamoat ruhi, davrga xos

# XXI-ASRNING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI

muhim muammolar ustundir. 1490-1500- yillar Navoiy eng nafis, ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlarini yaratgan. Alisher Navoiyning ijodi ulkan. Olti dostonining hajmi 60 000 ga yaqin misrani tashkil etadi. 1483-1485-yillar Navoiy o‘z ichiga besh dostonni olgan “Xamsa” asarini yaratgan: “Hayrat ul-Abror” (“Yaxshi kishilariing hayratlanishi”), “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” (“Yetti sayyora”), “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”). Navoiyning “Xamsa”si mazkur janarda yaratilgan turkiy tildagi birinchi asar hisoblanadi. U - turkiy tilida ham bu kabi yirik ko‘lamdagi asar yaratilishi mumkinligini isbotlab berdi. Haqiqatan ham, Navoiy chig’atoy tilida (eski o‘zbek tili) ham fors-tojik adabiyoti bilan bir darajada turuvchi asar yaratish mumkinligini isbotlashga harakat qilgan. Va u o‘zining besh hazinasi orqali buning uddasidan chiqqan.

Navoiy musulmon Sharqining, deyarli barcha janrlarida o‘z qalamini sinab ko‘radi va o‘z ovozi, o‘z uslubi borligini ko‘rsata oladi. Sharq adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusida 120 dan ziyod doston yaratilgan. Navoiy ham shaxsiy yondashuvi ila ushbu mavzuda doston yozadi. Dostonda Layli va Majnun o‘rtasidagi sevgi bayon qilinadi. O‘z ifodasida Navoiy odamiylik va so‘fiylik sevgisini sharhlashga harakat qilgan. O‘zining so‘fiylik qarashlarini Navoiy, shuningdek, “Farxod va Shirin”, “Hayrat ul-Abror” dostonlarida ham ifodalagan. Uning dostonlarida so‘fiylik mavzusi umumfalsafiy darajaga ko‘tarilgan.

Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni u yaratgan “Xamsa”ning 2-dostoni bo‘lib, unda Farhod oddiy tosh yo‘nar oshiq emas, balki xoqonning o‘g‘li, aniqrog‘i, Xo‘tan mamlakati podshosining qarilikda ko‘rgan yakka-yu yagona farzandi bo‘lib, yoshligidan fanning barcha sohalariga qiziqqan, harbiy bilimlarni, ayniqsa, toshyo‘narlik, kasbini egallahsga uringan. Farhod ishq o‘tida sarmast obrazida ham juda go‘zal tasvirlanadi. U ishq o‘tida yonganidan turli mashaqqatlarga ham rozi bo‘ladi va turli tilsimlarni yengib chiqishga kirishadi. Komillikning eng asosiy sharti qalbni nafs qutqusidan xalos etmoqdir. Shuning bilan birga kasb-hunar bilan band bo‘lmoqlikdadir. Farhod ham aynan shu yo‘ldan boradi.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni markazida komil inson tarbiysi turadi. Shariat ahkomiga tariqat rasmi-rusumlari, pir muridlik an’anasi, solik odobi, poklanish, tavba tazarru, zikr-u samo - hamma- hammasidan maqsad insonni komillikka yuksaltirish, ruhni yaxshilash, g‘aybiyotning sir-u asrorini kashf etish. Alisher Navoiy Farhod timsolidha insonni ruhiy, ma’naviy va jismoniy kamol toptirish va poklash ilmi bo‘lgan futuvvat orqali poklaydi. Farhodning botinidagi barcha tuzatish xislatlarni nafs tushunchasiga bog‘lab izohlaydi va unga qarshi jihad e’lon qiladi. Asarda temir odam, dev obrazlari nafs timsolidir.

# XXI-ASRNING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI

"Farhod va Shirin"ni biz ishq, muhabbat ruhida yozilgan noyob asarlar sirasiga krita olamiz. Dostonda Farhodning Shirin ishqini uchun, unga yetish uchun qilgan harakatlarda ko'plab insoniy fazilatlarni jumladan: insonparvarlik, tinchlik, do'stlik har bir ishga butun vujudi bilan yondashib tez o'rghanish, mehnatsevarlik, obodonchilikka harakat qilish kabi hislatlarni uchratamiz. Bu asar sevgi va muhabbatni tarannum etish bilan birlgilikda chin ma'nodagi inson shaxsiyatini yortib bergan komillikka yetishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich bosib o'tish kerakligini ko'rsatadi. Farhodni kuch-quvvat, qat'iyat, matonat, Shirin esa go'zallik, latofat timsolida ko'ramiz. Farhod orqali ilm olish, hunar egalashga, sabr toqat va insoniy fazilatlari orqali yetuklikka intilishni targ'ib qilingan yoshlarni ayni shu xislatlar bilan oziqlanishi kerakligini ta'kidlangan. Asarda shoir Farhodni voyaga yetguniga qadar parvarish qilib ilm-u hunarni mohirlik bilan uning shaxsiyatiga singdiradi shu ma'noda barcha imkon yoshlar qo'lida ekanligini, harakatchan, izlanuvchan bo'lish kerakligini yorqin misol sifatida ko'rsatadi. Yoshlarni sport va ilmda, umuman olganda,barcha sohada ilg'or bo'lishga undaydi. Barcha davrda dunyo o'z daho insonlarini ko'rgan, bu asar yaratilgan vaqtida ham Xuroson o'lkasida ilm-ma'rifikat keng targ'ib qilingan davr bo'lgan. Shu sabdan ko'rishimiz mumkinki, Farhodning shiori "O'qib o'tmak, uqib o'tmak", - deya ta'riflangan.Farhod ustozlaridan me'morlik, naqqoshlik, tosh yo'nish hunarlarini ham mukammal tarzda o'rGANADI, bu bilan shoir nafaqat ilm, balki mohir hunar ham paytida asqotishini ta'kidlaydi.